

# BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING NUTQIY KO'NIKMA VA MALAKALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

**Normatova Dilfuza Eshmurodovna**

Termiz davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim nazariyasi magistranti

## **ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqiy ko'nikma va malakalarni rivojlantirishda nutqiy ravonlikning o'rni hamda bu borada amalga oshiriladigan ishlar mazmuni haqida artoflicha fikr yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *nutq, malaka, ko'nikma, nutq ravonligi, so'z boyligi, o'quvchi, tadqiqot, bilim, metod.*

## **ABSTRACT**

*In this article, the role of speech fluency in the development of speaking skills and competences of elementary school students and the content of the work carried out in this regard are discussed.*

**Key words:** *speech, competence, skill, speech fluency, vocabulary, student, research, knowledge, method.*

### **Kirish.**

Hozirgi globallashuv davrida millatning sof ona tili va asrlar davomida rivojlanib sayqallanib kelayotgan nutqiy ko'nikmalariga e'tibor kundan-kunga ortib bormoqda. Yurdboshimiz Shavkat Mirziyoyev "O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi" da "Ona tilimiz – milliy ma'naviyatimizning bitmas-tuganmas bulog'idir. Shunday ekan, unga munosib hurmat va ehtirom ko'rsatish barchamizning nafaqat vazifamiz, balki muqaddas insoniy

burchimizdir”<sup>1</sup> deganlari bu mavzumizning hozirgi kunda muhim ekanligidan dalolat beradi. “Yangi O‘zbekiston-maktab ostonasidan boshlanadi” shioriga amal qilgan holda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ona tilimizning boy merosini o‘rgatib borishimiz lozim. Bu jarayonda albatta nutqiy ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish metodikalarini takomillashtirish juda muhimdir. Fikrimizni o‘quvchilarning nutqiy malaka va ko‘nikmalarida nutqiy ravonlikning ahamiyati haqida davom ettirsak.

### **Asosiy qism**

Hozirgi zamonaviy dunyoda nutq ravonligi ahamiyati juda katta, chunki insonlar hamkorlikda ishlashlari, o‘z fikrlarini yetkazishlari va yashashlari uchun samarali nutq qobiliyatlari kerak bo‘ladi. Nutq ravonligi o‘quvchilarning ijtimoiy, ma‘rifatga ega bo‘lishiga yordam beradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarda nutq ravonligining o‘rni hamda ahamiyati juda katta. Nutqning ravon va sodda bo‘lishi, o‘quvchilarning o‘z fikrlarini, fikr-mulohazalarini va ma‘lumotlarini boshqalarga yetkazishini va tushuntirishini osonlashtiradi. Nutq ravonligi o‘quvchilarning ijtimoiy hayotda, o‘qish-o‘rganish davrida, kelajakda kasb tanlashida va o‘z faoliyatlarida muvaffaqiyatga erishishlariga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Sodda va samarali nutq o‘quvchilarni turli sohalar va joylarda o‘z fikrlarini fikr-mulohazalarini ifodalash va boshqalarga yetkazishlariga imkoniyat yaratadi. Nutq ravonligi o‘quvchi bilimni amalga oshirish, ish bilan bog‘liq topshiriqlarni bajarish, ma‘lumot almashish va tahlil qilish imkoniyatlarini oshiradi. Buning natijasida o‘quvchilarning o‘zlariga bo‘lgan ishonchi oshadi va o‘z malakalarini yanada rivojlantirishga harakat qiladi. Buning uchun boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ham sinfda o‘quvchilar nutqiy malaka, ko‘nikmalarni rivojlantiradigan va rag‘batlantiradigan muhitini yaratishlari lozim. Bundan tashqari darslarda o‘quvchilarning tengdoshlari oldida nutq so‘zlashlari, darsda faol ishtirak etish imkoniyatlarini, sinfda munozaralar, guruh faoliyatida jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini yaratishlari kerak. O‘quvchilarni o‘z fikrlarini erkin bayon etishga

---

<sup>1</sup> Prezident Shavkat Mirziyoyevning o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqidan 21.10.2019

undash, ulardagi g'oyalarni shakllantirish, turli xil savollar berish va o'z fikrlarini og'zaki ifoda etishga o'rgatish lozim.

Nutqiy malakalarni rivojlantirish uchun quyidagi metodikalardan foydalanishingiz mumkin:

1. Dastlabki topshiriqlarni berish: O'quvchilarni nutqiy malakalarini rivojlantirish uchun ularni ma'lum bir mavzuda so'zlash, maqola yozish yoki oson so'zlashni talab qiladigan topshiriqlar berish.

2. Muammoli yoki mantiqiy muloqotlar: O'quvchilarga mantiqiy so'zlashning qanday qobiliyatlarni talab qilishini o'qitishingiz mumkin. Ularga muammoli mavzularida fikrlarini izohlash va birga mantiqiy muloqotlar o'tkazishlarini tavsiya qilishingiz mumkin.

3. Tez-tez so'zlash jarayoni va maqbul fikrlar berish: O'quvchilarga tez-tez so'zlash va ko'proq fikrlar aytishlariga imkoniyat yaratishingiz, shuningdek ularning fikrlarini eshitish va qo'llab-quvvatlashga harakat qilishiz kerak.

4. O'quvchilarga insho yozishni o'rgatish: Insho yozish yordamida o'quvchilarni fikr-mulohazalarini sodda va tushunarli tarzda ifodalashlari ta'minlanadi, shuningdek nutqiy malakalarini rivojlanib boradi..

5. Nutqiy malakalarni baholash va motivatsiya: O'quvchilarni rag'batlantirish va mukofotlash ham ta'lim jarayonida katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

## **XULOSA**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ravon nutqni rivojlantirish orqali ulardagi nutqiy malakalar va ko'nikmalarni yanada takomillashtirishga erishishimiz mumkin. Yuqorida biz tavsiya qilgan metodikalar o'quvchilarning nutqiy malakalarini rivojlantirish uchun yordam berishi mumkin va barcha o'quvchilarning o'zlashtirish va rivojlanish ko'nikmalariga ega bo'lishi uchun imkoniyat yaratadi degan umiddamiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Nasriyeva D “O‘quvchilarda nutqiy malakani shakllantirish usullari” Scientific Journal Impact Factor(SJIF2022=4.63)Passport: <http://sjifactor.com/passport.php?id=22230>
2. Jumanova F “O‘quvchilar nutqiy malakasini shakllantirishda xalq og‘zaki ijodi va ertaklardan unumli foydalanish” Academic research in educational sciences volume 2 | ISSUE 4 | 2021
3. Kamhi, A.G., & Clark, M.K. (2013). Specific language impairment. *Handbook of Clinical Neurology*, 111, 219-227. <https://doi.org/10.1016/B978-0-444-52891-9.00022-1>.